

BANKLARDA RISKLAR VA ULARNI BOSHQARISH

Muxitdinova Muyassar Ziyaviddinovna

Bank-moliya akademiyasi dotsenti v.b., PhD.

[*muyassarmukhitdinova@gmail.com*](mailto:muyassarmukhitdinova@gmail.com)

Nurmatova Maxliyoxon Raxmatjonovna

Bank-moliya akademiyasi magistranti

[*nurmatovam1306@gmail.com*](mailto:nurmatovam1306@gmail.com)

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi kundagi risk turlari, risklarni boshqarish yo'llari hamda risklarni boshqarishda yo'l qo'yilayotgan kamchiliklar va ularni bartaraf etish usullari ko'rib chiqiladi. Shu bilan birga O'zbekiston Respublikasida Bazel qo'mitasining talablari asosida bank sohasinig transformatsiyasinatijalari ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: risk turlari, risklarni baholash, risklarni boshqarish usullari, risklarni boshqarishdagi kamchiliklar va ularni bartaraf etish metodlari.

Аннотация: Статья посвящена исследованию рисков и их управлению в банковской сфере. В работе анализируются основные виды рисков, с которыми сталкиваются банки, такие как кредитный, операционный, рыночный и репутационный риски. Рассматриваются методы и инструменты управления рисками, включая стандарты регулирования и внутренние политики банков. В статье также обсуждаются последствия недостаточного управления рисками и предлагаются рекомендации по совершенствованию практик управления рисками в банковском секторе.

Ключевые слова: виды рисков, оценка рисков, методы управления рисками, недостатки в управлении рисками и методы их устранения.

Abstract: This article examines the risks faced by banks and explores strategies for managing and mitigating these risks. The study highlights the importance of effective risk management practices in the banking sector, in order to maintain financial stability and protect against potential losses. Various types of risks, including credit, market, operational, and compliance risks, are analyzed, along with the tools and techniques available to banks for identifying, measuring, and controlling these risks. The article also discusses the role of regulatory requirements and industry best practices in guiding banks' risk management efforts.

Keywords: types of risks, risk assessment, risk management methods, deficiencies in risk management and methods of their elimination.

KIRISH

Hozirgi paytda bank tizimini yanada rivojlantirish va jahon standartlariga yaqinlashtirish borasida bir qator ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Bank risklarini boshqarish borasida olib borilgan ishlar ham shular jumlasidandir. Bu borada banklarda bank risklarini boshqarish siyosati, risklarni boshqarish strategiyasi va risk appetini ishlab chiqish, banklarda risklarni boshqarish va nazorat qiluvchi qo'mitalarni tashkil qilish kabi ishlar yo'lga qo'yilgan.

Mamlakatimizda bank tizimini tartibga solish va nazorat qilishni xalqaro tan olingan andozalarga mos ravishda takomillashtirish maqsadida doimiy ishlar olib borilmoqda. O'zbekiston bank tizimida kapitalning yetarlilik darajasi tavakkalchilikni hisobga olgan holda hisoblangan aktivlarning 23,7 foizini tashkil etmoqda. Bu bank nazorati bo'yicha Bazel qo'mitasi tomonidan belgilangan standart ko'rsatkichidan qariyb 3 baravar ko'pdir.

Tijorat banklarida risklarni boshqarish siyosati riskni boshqarish tuzilmasining bazaviy tamoyillarini va eng muhim qoidalarini belgilaydi, hamda riskni boshqarish jarayonini tashkil etish bo'yicha talablarni o'rnatadi. Shuningdek ularga muvofiq bank risklarini hamda o'z mablag'lari yetarligini boshqarish tizimini shakllantiradi. Risklarni boshqarish tizimi bank korporativ boshqaruvi umumiy tizimining bir qismi hisoblanadi. Hozirgi davrda moliyaviy bozorda juda murakkab, beqaror vaziyat hokum surayotganligini inobatga olsak, bank faoliyati turli xil moliyaviy risklar bilan bevosita bog'liqdir. Bank risklarini nazorat qilish va boshqarish amaliyoti va metodologiyasi bank faoliyati uchun eng muhim hisoblanadi.

Risklarni muvoffiqiyatli boshqarish har qanday moliyaviy tashkilotning raqobatbardoshligini va ishonchliligining eng muhim shartidir. Ko'pgina misollar shuni ko'rsatadiki, risklarni boshqarish to'g'ri tshkil etilmagan taqdirda bankning moliyaviy ahvolini jiddiy yomonlashishiga, balki o'ta og'ir holatlarda kapitalning yo'qolishiga va bankrotlikka olib kelishi mumkin. Risklarni boshqarishni bank faoliyatining har qanday yo'nalishi singari doimo takommilashtirib borilishi kerak. Risklarni boshqarishda eng yangi usullar va innovatsiyalarni joriy etish tez sur'atlar bilan amalga oshirish, yangi bank mahsulotlari paydo bo'lishi va mavjudlarini takomillashtirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish risklarni boshqarishning bir qismidir. Suningdek bank risklarini boshqarish kompleks bo'lishi, bank bank faoliyatiga yaxlit bo'lishi, bankning moliyaviy ishonchliligi va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlashi kerak. Shuning uchun banklarda risklarni boshqarish to'g'ri tashkil etish va uni zamonaviy tahlillar asosida olib borish katta ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Adabiyotlarda moliyaviy innovatsiyalar bank tizimining barqarorligiga ta'sir etuvchi bir qator mexanizmlari aniqlangan. Bir tomondan, moliyaviy innovatsiyalar banklarda risklarni rag'batlantirishni oshirishi sababli banklarning barqarorligini kamaytirishda ayblangan bo'lsa (Santomero va Trester, 1998, Duffee va Zhou, 2001.

Cebenoyan va Strahan, 2004, Loutskina va Strahan, 2006 bu borada empirik dalillar beradi), boshqa tomondan, banklarning portfellarini riskini kamaytirishda ulardagi qarz oluvchilarni monitor qilib borish mumkin (Morrison, 2005, Hakenes va Schnabel, 2010, Ashcraft va Santos, 2009 empirik dalillarni taqdim etgan). Yana ba'zi tadqiqotchilar moliyaviy innovatsiyalar moliyaviy barqarorlikni oshirishini ta'kidladilar, chunki ular institutlarga o'z risklarini yaxshiroq diversifikatsiya qilishga imkon beradi (Vagner va Marsh, 2006). Diversifikatsiya uchun innovatsiyalardan foydalanish banklarni kredit riskini aniqroq baholashga undashi mumkin. Bundan tashqari, ushbu yangiliklardan foydalangan holda risklarni boshqarish moliya institutlariga moliyalashtirish va investitsiya sharoitlarini zarbalardan ajratishga imkon beradi (Froot va boshq., 1993; empirik dalillar Norden va boshq. 2014). Bundan tashqari, innovatsiyalar moliya tizimidagi risklarni yanada samarali taqsimlashi mumkin, chunki risklarni yanada barqaror moliya institutlariga o'tkazish hamda (Vagner va Marsh, 2006, Instefjord, 2005) riskni o'tkazish jarayonida tizimdagi yuqori likvidlik natijasida barqarorlik ham oshishi mumkin (Santomero va Trester, 1998, Vagner, 2007).

Risk tushunchasiga iqtisodchi olimlar tomonidan turli xil ta'rif berilgan, jumladan, V.Dalning (2006.) izohli lug'atida «risk» so'zini tavakkal qilmoq, xavfli ish qilmoq, «riskovat» tushunchasini esa tavakkal qilish, biror ishni to'g'ri mo'ljallab ko'rmay qilish, dadillik, qat'iyat bilan ish tutmoq, ma'lum xatarga o'zini urmoq deb izohlaydi.

Rossiyalik filolog S.Ojegovning (2019) fikricha, «risk» so'zini sodir etilishi mumkin bo'lgan tahlika yoki muvaffaqiyatli natija umidida tavakkalchilik qilish, tavakkal qilmoq, xavfli ishga qo'l urmoq, «riskovat» so'zini esa xavf-xatardan qo'rqmay ish qilmoqdir. Yana bir izohli lug'at muallifi Ushakov (2014) «risk» so'zini biror zarar yetkazish xavfi bo'lgan tahlika yoki har qanday zarar yetkazish ehtimolini tushunadi. Bank tizimida risklarni paydo bo'lishi sabablari va ularni samarali boshqarish borasida bir qator o'zbekistonlik iqtisodchi olimlarimiz ham samarali tadqiqotlar olib borganlar. Ular orasida, «Bank risklari va ularni kreditlash» mavzusida doktorlik ishini himoya qilgan va shu mavzu doirasida monografiya chop etgan i.f.d., prof. Sh.Abdullayeva (2002) «risk» terminini ma'nosini tahlika, tahdid, tavakkal qilmoq, xavfli ish qilmoq deb, «riskovat» atamasini esa xavf ostida qoldirishga jur'at etmoq deb talqin qiladi.

Ishbilarmonlik, tartibga solish va geosiyosiy muhitda kuchaygan noaniqlik va o'zgaruvchanlik biznes rahbarlarini o'zlarining an'anaviy bank tizimlarini saqlab qolish yoki risklarni boshqarish yondashuvlarini qayta ko'rib chiqish to'g'risida qaror qabul qilishlariga olib keladi. Ularning asosiy e'tibori: ularning omon qolishi va mustahkamligi. Bu ular duch keladigan risklarni bilishdan boshlanadi, ularning asosiylari:

Kredit riski: Bu banklar uchun eng katta xavf bo'lib, ular mijozlarga qarzlarni to'lash kafolati bo'lmagan holda har safar qarz berganlarida sodir bo'ladi. Shu bilan birga qarz oluvchilar o'z kreditlarini to'lamaslik yoki shartnoma majburiyatlarini bajarmaslik xavfidir. Ipoteka, doimiy daromadli qimmatli qo'ozlar, kredit kartalari yoki derivativlar bo'yicha sodir bo'lishi mumkin bo'lgan bunday shartnomalar banklarning ko'proq qarzdor bo'lishiga olib kelishi mumkin.

Foiz stavkalari riski: Foiz stavkalarining o'zgarishi bank rentabelligiga ta'sir qilishi mumkin. Bank talabnomalari va majburiyatlarini so'ndirish muddatlari bir-biriga to'g'ri kelmasligi, shuningdek talabnoma va majburiyatlar bo'yicha foiz stavkalarining turli darajada o'zgarishlari bilan bog'liq.

Valyuta riski: Bank tomonidan ochilgan chet el valyutalarida pozitsiyalar bo'yicha chet el valyutalari kurslarining salbiy o'zgarishlari oqibatida yo'qotishlar yuzaga kelishi.

Bozor riski: Banklar foiz stavkalari, valyuta kurslari va boshqa bozor o'zgaruvchilari o'zgarishiga duchor bo'ladilar. Jahon moliya bozorida o'zgarishlar bank sektorida yo'qotishlarga olib kelishi mumkin, bu bozor yoki tizimli risk deb ham ataladi. Masalan, 2008 yilda moliyaviy tizimni to'xtab qolgan uy-joy bozori inqirozi bunga misol bo'la oladi. Boshqa manbalarga siyosiy tartibsizliklar, tabiiy ofatlar yoki iqtisodiy tanazzullar ham kiradi.

Likvidlik riski: Agar bank o'z majburiyatlarini bajara olmasa, uning moliyaviy ahvoli yoki mavjudligini xavf ostiga qo'yadi. Bunday hollarda, mijozlar o'z depozitlarini qaytarib olishlari uchun mablag'larni to'lash majburiyatlarini bajarish uchun bank aktivlarini naqd pulga aylantira olmaydi. Xususan qisqa muddatli moliyalashtirish manbalariga haddan tashqari ishonish, noto'g'i boshqarilmagan aktiv-passivlar yoki mijozlarning bankka ishonchini yo'qotishi bilan bog'liq.

Operatsion risk: Ushbu turdagi xavf ichki jarayonlar, tizimlar, odamlar va tashqi hodisalardan kelib chiqadi. Masalan, xavfsizlik buzilishi yoki xizmatning uzilishi. Xodimlar va boshqa shaxslarning qasdan yoki ehtiyotsizlik harakatlari kiradi.

Muvofiqlik va tartibga solish riski: Banklar turli qonunlar va qoidalarga rioya qilishlari kerak. Shartnomaga rioya qilmaslik moliyaviy jarimalar va obro'ga putur yetkazishi mumkin.

Strategik risk: Bu risk bankning biznes strategiyasi bilan bog'liq noaniqlikdan kelib chiqadi.

Reputatsiya riski: Bankning obro'si qimmatli aktivdir. Xodimlar va bankning xatti-harakati yoki xatti-harakatlari natijasida bank obro'si yoki brendiga yetkazilishi mumkin bo'lgan zararni bildiradi, natijada salbiy idrok etish va keyinchalik aholi tomonidan bankka bo'lgan ishonchni yo'qotishdir.

Firibgarlik xavfi: Firibgarlik xavfi banklar boshqarishi kerak bo'lgan xavfning eng muhim toifasidir. Firibgarlik xavfi deganda, firibgarlik faoliyati tufayli moliyaviy

yo'qotish va bank obro'siga putur yetkazish ehtimoli tushuniladi. Banklar, ayniqsa, har xil turdagi firibgarliklarga nisbatan zaifdir va bu riskni boshqarish mijozlar va manfaatdor tomonlarning ishonchini saqlab qolish uchun juda muhimdir.

Komplaens risklari: Qonunchilik hujjatlari, xalqaro tashkilotlar hujjatlari va bankning ichki hujjatlariga rioya etmasligi natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan zarar ko'rish va rejalashtirilgan daromadni olmaslik ehtimolidir.

Kiberxavfsizlik riski: Moliyaviy xizmatlar provayderlari shaxsiy elektron ma'lumotlarni o'g'irlik, noto'g'ri foydalanish yoki shikastlanishdan saqlashni o'z ichiga olgan kiberxavfsizlik risklari bilan kurashadilar. Ushbu xavfni oshiruvchi omillar orasida noto'g'ri parol siyosati, tranzaksiya biznesi va mantiqiy kirish nazorati yo'qligi va shaxsiy tekshirish kamchiliklari kiradi. Xavfsizlik masalasi ham ko'rib chiqilishi kerak bo'ladi. 2021-yilgi tadqiqot hisoboti shuni ko'rsatdiki, moliyaviy ilovalarning 77 foizi ma'lumotlarning buzilishiga olib kelishi mumkin bo'lgan kamida bitta jiddiy zaiflikka ega.

Biroq, hech qanday tayyorgarlik ofatlarni oldini olmaydi - ular sodir bo'ladi. Bank sohasi rahbarlari bunday ofatlar yuz berganda javob berish uchun mustahkam va moslashuvchan rejalarga muhtoj. Bankning risklar ta'siridan ehtimoliy moliyaviy yo'qotishlari minimallashtirishni va kapitalning tegishlicha saqlanishini ta'minlashning birdan-bir yo'li risklarni boshqarish, aniqlash hamda nazorat qilishdir. Buning uchun esa banklarda risklarni boshqarish siyosatini ishlab chiqadi va bank oldida turgan srategik maqsadlarga uning uzoq muddatli barqarorligiga zararsiz erishishda oqilona ishonchni ta'minlaydi. Risklarni boshqarish jarayoni amalga oshiriladigan harakatlar uchun asos yaratadi. Riskni boshqarish uchun beshta asosiy qadam qo'yilishi kerak; bu bosqichlar risklarni boshqarish jarayoni deb ataladi. U riskni aniqlashdan boshlanadi, risk tahliliga o'tadi, so'ngra riskga ustuvorlik beriladi, yechim amalga oshiriladi va nihoyat risk nazorat qilinadi. Xususan, banklar risklarni boshqarish rejasini amalga oshirishda quyidagi bosqichlarni bajaradilar:

Identifikatsiya: Riskning asosiy sababini aniqlaydi. Risklarni boshqarish jarayonidagi birinchi qadam biznesning operatsion muhitida duch keladigan xavflarni aniqlashdir. Ushbu yondashuvning afzalligi shundaki, bu xavflar endi tizimga kirish huquqiga ega bo'lgan barcha tashkilot manfaatdor tomonlariga ko'rinadi. Masalan, kreditorlar tomonidan noto'g'ri baholash qarz oluvchilar bilan bog'liq kredit risklarining asosiy sababidir. Risklarni boshqarish jarayonidagi birinchi qadam biznesning operatsion muhitida duch keladigan risklarni aniqlashdir. Turli xil risk turlari mavjud ushbu risk omillarini iloji boricha ko'proq aniqlash muhimdir.

Baholash va tahlil qilish: Riskni bir xilda baholash, uning ehtimolini aniqlash va tuzatish ishlariga ustuvorlik beradi. Risk aniqlangandan keyin uni tahlil qilish, riskning ko'lamini aniqlash kerak. Bank ichidagi risklar va turli omillar o'rtasidagi munosabatni tushunish ham muhimdir. Riskning jiddiyligi va jiddiyligini aniqlash uchun uning

qancha biznes funktsiyalariga ta'sir qilishini ko'rish kerak. Risklarni boshqarish samaradorligini oshirishni istagan har qanday biznes risklarni boshqarishni baholashga e'tibor qaratishi kerak. Ushbu baholash va baholashlar banklarga o'z imkoniyatlarini, kuchli va zaif tomonlarini to'g'ri tushunishga yordam beradi. Ko'proq baholash biznesning xavflarni boshqarishni yaxshilashi kerak bo'lgan joyni yaxshiroq tushunishga olib keladi. Risklarni boshqarish tizimiga biron bir katta o'zgartirish kiritishdan oldin, baholashni o'tkazish muhimdir.

Monitoring: Nazoratning samarali bo'lishini ta'minlash va risklarni boshqarish bo'yicha tashabbuslar, erishilgan yutuqlarni aniqlash orqali paydo bo'layotgan tendentsiyalarni hal qilish uchun sinovdan o'tkazish, ko'rsatkichlarni to'plash va hodisalarni bartaraf etish. Risklar tartiblangan va ustuvor bo'lishi kerak. Risklarni boshqarish bo'yicha ko'pgina yechimlar riskning jiddiyligiga qarab turli xil risk toifalariga ega. Noqulaylik keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan risklar past, halokatli yo'qotishlarga olib kelishi mumkin bo'lgan risklar eng yuqori baholanadi. Risklarni tasniflash juda muhim, chunki bu bankka butun tashkilotning xavf-xatarlari haqida yaxlit tasavvurga ega bo'lishga imkon beradi.

Minimallashtirish: Riskga duchor bo'lishni kamaytirish, hodisa ehtimolini minimallashtirish va bankni himoya qilish uchun doimiy ravishda eng muhim muammolarni hal qilish. Har qanday riskni imkon qadar yo'q qilish yoki cheklash kerak. Bu risk bilan bog'liq bo'lgan sohadagi mutaxassislar bilan o'zaro hamkorlik qilish orqali amalga oshiriladi.

Hisobot: Bankning risk profilining dinamik ko'rinishini berish va rejaning samaradorligini ko'rsatish uchun risklarni boshqarish dasturining borishi haqida hisobotlarni yaratish.

NATIJALAR

Risklarni boshqarish banklarga biznes muhitida risklarni kamaytirishni aniqlash, baholash, monitoring qilish va yaxshilashga yordam beradigan muhim biznes amaliyotidir. Banklar o'sishi bilan barqarorlikni xohlashadi. Biznesga ta'sir etuvchi risklarni boshqarish ushbu barqarorlikning muhim qismidir. Biznesga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan xatarlarni bilmaslik bank uchun yo'qotishlarga olib kelishi mumkin. Risklarni boshqarish muhim ahamiyatga ega, chunki u banklarni operatsion muhitidagi tahdidlar haqida ogohlantiradi va ularga risklarni faol ravishda kamaytirishga imkon beradi. Risklarni boshqarish bo'lmasa, banklar katta yo'qotishlarga duchor bo'ladilar, chunki ular risklar bilan to'lib-toshgan bank faoliyatida risklarni boshqarish turli shakllarda bo'lishi mumkin bo'lsa-da, samarali risklarni boshqarish strategiyalari odatda siyosat, jarayonlar, vositalar va boshqaruv tuzilmalarining kombinatsiyasini o'z ichiga oladi va maxsus resurslardan foydalanishi mumkin.

1-jadval.

Bank tizimi jami kapitali monandlilik darajasi				
Ko'rsatkichlar nomi	01.05.2023 y.		01.05.2024 y.	
	mlrd. so'm	ulushi, foizda	mlrd. so'm	ulushi, foizda
I darajali kapital	75.720	84,9%	94.713	84,2%
<i>Asosiy kapital</i>	75.682	84,9%	94.658	84,1%
<i>Qo'shimcha kapital</i>	38	0,04%	55	0,05%
II darajali kapital	13.433	15,1%	17.820	15,8%
Jami regulyativ kapital	89.153	100%	112.532	100%
<i>Kapital monandlilik darajasi</i>	17,2%		17,2%	
<i>I darajali kapital monandlilik darajasi</i>	14,6%		14,5%	

Manba: <https://cbu.uz/oz/statistics/bankstats/1710847/>

Mamlakat bank tizimining barqaror va samarali faoliyat yuritishini ta'minlash masalasi bugungi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotmadi. Markaziy bank tomonidan "Tijorat banklari kapitalining monandligiga qo'yiladigan talablar to'g'risida"gi Nizom ishlab chiqilib, Adliya vazirligi tomonidan 2015 yil 6 iyulda 2693-son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.

Markaziy bankning ushbu Nizomi Bazel qo'mitasining yangi tavsiyalariga bosqichma-bosqich o'tishni nazarda tutadi.

Xususan, bankning I darajali kapitali (T1 –Tier 1) ikki qismga, ya'ni

I darajali asosiy kapital (CET1 –Common Equity Tier 1) va

I darajali qo'shimcha kapitalga (AT1 –Additional Tier 1) bo'lindi.

I darajali asosiy kapital (CET1) regulyativ kapitalning (TC – Total capital) 60 foizidan kam bo'lmasligi hamda I darajali kapital (T1) regulyativ kapitalning (TC) 75 foizini yoki undan ko'pini tashkil etishi kerakligi belgilangan.

Bank I darajali asosiy kapitali tarkibiga to'liq to'langan va muomalaga kiritilgan oddiy aksiyalar, taqsimlanmagan foyda va devalvatsiya zaxirasi kiritilgan. Shuningdek, barqaror kapital bazasini shakllantirish maqsadida, regulyativ kapitaldan qilingan chegirmalar I darajali kapitaldan chegiriladi.

Bank kapitalini oshirish maqsadida hamda Bazel III tavsiyalariga muvofiq, har bir bankda moliyaviy-iqtisodiy inqirozlar yuzaga kelganda, ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash uchun jami aktivlarning 3%dan kam bo'lmagan miqdorda konservatsiya buferi tashkil qilinishini hisobga olgan holda bankning regulyativ kapitalini, I darajali kapitalini va I darajali asosiy kapitalini yilma-yil oshirib borishi ko'zda tutilgan.

Jumladan, 2016 yil 1 yanvardan boshlab regulyativ kapitalning monandlik koeffitsiyenti (K1)ning eng kichik darajasi 0,115 (11,5 %) miqdorida belgilangan bo'lib, banklar tavakkalchilikni hisobga olgan holdagi aktivlarning 3%i miqdoridagi kapitalni konservatsiya qilish buferini hisobga olgan holda ushbu ko'rsatkich 2017 yil yanvardan 0,125 (12,5 %), 2018 yil 1 yanvardan 0,135 (13,5 %) va 2019 yil 1 yanvardan boshlab K1 ning eng kichik darajasini 0,145 (14,5 %) miqdorida ta'minlashlari lozim. Yuqoridagi jadvalda ko'rinib turibdiki mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar samarali natijalarini ko'rsatmoqda.

Ko'p hollarda banklar risklarni boshqarish, monitoring qilish, o'lchash va nazorat qilishning yagona maqsadiga bag'ishlangan risklarni boshqarish bo'limlariga ega. Ushbu guruhlar muntazam risklarni baholash va stress testlarini o'tkazishi va o'z muassasasi duch kelishi mumkin bo'lgan turli risklarga bardosh bera olishiga ishonch hosil qilish uchun turli strategiyalarni tahlil qilishi mumkin. "Tijorat banklarida aktivlar sifatini tasniflash va aktivlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash uchun zaxiralar shakllantirish hamda ulardan foydalanish tartibi to'g'risida"gi Nizom Markaziy bank Boshqaruvining 2015 yil 13 iyundagi 14/3-son qarori bilan tasdiqlangan va Adliya vazirligi tomonidan 2015 yil 14 iyulda 2696-son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan. Mazkur nizomda aktivlarni tasniflash toifalarining nomlari jumladan, "yaxshi" kreditlar – "standart" kreditlarga, "standart" kreditlar – "substandart" kreditlarga, "substandart" kreditlar – "qoniqarsiz" kreditlarga o'zgartirilgan.

Banklar soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar to'langandan so'ng qolgan foyda hisobidan ushbu nizom kuchga kirgan sanadan e'tiboran ajratilib, hisobot sanasiga "standart" sifatida tasniflangan kreditlar (aktivlar) qoldig'iga 1 % miqdorida zaxiralar tashkil qilinishi joriy qilindi. Mazkur zaxira bank kapitali tarkibida yaratiladi va bu bankning moliyaviy barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Nizomda tijorat banklari tomonidan korxonalarining qimmatli qog'ozlariga qilingan investitsiyalarini tasniflashning aniq omillari ko'rsatilgan. Jumladan,

- oxirgi bir yil davomida tijorat bankiga daromad keltirmagan investitsiya – "qoniqarsiz" sifatida;
- oxirgi ikki yil davomida tijorat bankiga daromad keltirmagan investitsiya – "shubhali" sifatida;
- oxirgi uch yil davomida daromad olinmagan investitsiya – "umidsiz" sifatida tasniflanadi.

Yuqorida keltirilgan qoidalarning joriy qilinishi tijorat banklari tomonidan muddati o'tgan, sud jarayonidagi kreditlarni undirish va bank balansiga olingan mulklarni sotish bo'yicha choralarni yanada kuchaytiradi va banklarning moliyaviy barqarorligini oshirish imkoniyatini yaratadi, pirovardida tijorat banklarining omonatchilari va kreditorlarining manfaatlarini yanada himoya qilinishi ta'minlanadi.

Oxir oqibat, bank ishida risklarni boshqarishning maqsadi manfaatdor tomonlar manfaatlarini himoya qilgan holda barqaror o'sish va rentabellikka erishish uchun risklarni kamaytirish o'rtasida to'g'ri muvozanatni saqlashdir. Shu bilan birga risklarni boshqarish bo'yicha siyosatni ishlab chiqish kerak bu esa, risklarni boshqarish jarayonlari tartibini ishlab chiqadi va uning samaradorligini oshiradi. Banklarda yangi mahsulotlarni joriy qilishda u bilan bog'liq risklarni aniqlash, bank profiliga risk-appetitiga, normativ hujjatlarga shu jumladan kapital yetariligi va likviditlik, shuningdek rentabellik ko'rsatkichlariga mosligini bilish risklarni aniqlash yo'llari orqali amalga oshiriladi. Birgina misolda, bankning kredit jarayonini raqamlashtirishda kredit olish uchun oxirigacha ishlov berish vaqtini qisqartirdi. Raqamli joriy hisob 90 foizdan ko'proqqa, umumiy xarajatlar esa 60 dan ko'proqqa kamaygan. Bu, shuningdek, moliyaviy jinoyatlar xavfini sezilarli darajada kamaytirdi.

TAHLIL VA MUHOKAMA

Banklar risklarni boshqarishdagi to'siqlarni qanday yengib o'tishlari mumkin: Banklar va moliya institutlari ushbu qiyinchiliklarni yengish va risklarni boshqarish uchun o'zgarishlarni qabul qilishlari va uni himoya qilishlari kerak. Innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish va boshqaruv, xavf va muvofiqlikni boshqarish orqali moslashtiradi. Hatto raqamli muhitda ham risklarni boshqarish jarayonining asoslari bir xil bo'lib qolmoqda. Shuningdek, banklar birinchi marta duch kelayotgan ko'plab yangi risklar mavjud va zamonaviy muammolar zamonaviy yechimlarni talab qiladi. Banklar va moliya institutlarining risklarni boshqarish bo'yicha guruhlar kelajakka tayyor bo'lishlari uchun bozorning so'nggi o'zgarishlari va tartibga soluvchi prognozlardan xabardor bo'lishlari kerak. Ular bir nechta keng ko'lamli muammolarni hal qilishlari kerak, jumladan:

Iste'molchi kutilmalari: Bugungi kunda mijozlar o'zlarining mobil qurilmalaridan bir nechta vazifalarni, shu jumladan bank xizmatlarini bajarish uchun foydalanadilar. Ular o'z banklarining filiallari yoki onlayn platformalari kabi funktsional yechimlarni xohlashadi, bu esa banklarni xavfsizlik risklari va platformani loyihalash muammolari bilan kurashishga majbur qiladi. Bank biznesida riskning barcha shakllarini boshqarishning eng samarali usuli bu sun'iy intellekt va ma'lumotlar tahliliga sarmoya kiritishdir. Ushbu texnologiyalar risklarni boshqarish guruhlariga real vaqtda ham, tarixiy ma'lumotlarni ham tahlil qilish, bashoratli modellarni yaratish va potentsial tahdidlarni proaktiv baholash imkonini beradi. Oxir oqibat, tahlil va sun'iy intellekt bank risk menejerlariga ongli qarorlar qabul qilish va tavakkalchilikni

boshqarish bo'yicha samarali strategiyalarni yaratish uchun zarur bo'lgan vositalar va bilimlarni beradi.

Rivojlanayotgan tartibga solish majburiyatlari: Yangi qoidalar yoki mavjudlariga o'zgartirishlar jamoatchilik kayfiyati, siyosiy tartibsizliklar va boshqa omillarga javob beradi. Banklar rioya qilishlari yoki o'zlarini muvofiqlik risklariga duchor qilishlari kerak.

Kiberxavfsizlik tahdidlari: Borgan sari texnologiyaga asoslangan bank va moliyaviy xizmatlar sanoati zararli dasturlar, fishing va boshqa tahdidlar orqali doimiy kiberxavfsizlik hujumlariga duch kelmoqda. Bu esa banklarda xavfsizlikni yanada oshirish choralarini joriy qilishga majbur qiladi.

Identifikatsiyani o'g'irlash va firibgarlik: Bular bank operatsiyalariga zarar yetkazadi, banklar va ularning mijozlari uchun xavfsizligiga xavf tug'diradi va mijozlarning umumiy tajribasiga ta'sir qiladi, natijada banklardan ko'proq pul chiqib ketadi.

Samarasiz jarayonlar: Banklar biznes yoki likvidlik risklarini oldini olish uchun operatsion xarajatlarga ko'p resurslarni sarflaydilar. Qattiq amaliyotlar mavjud bo'lmasa, bu xarajatlar tezda ko'tarilib, kredit, operatsion va muvofiqlik risklariga olib kelishi mumkin.

Risklarni boshqarish jarayonidagi birinchi qadam biznesning operatsion muhitida duch keladigan risklarni aniqlashdir. Turli xil risk turlari mavjud ushbu risk omillarini iloji boricha ko'proq aniqlash muhimdir. Agar tashkilot risklarni boshqarish bo'yicha yechimlardan foydalansa, bu ma'lumotlarning barchasi to'g'ridan-to'g'ri tizimga kiritiladi.

Banklar risklarga qarshi kurashishda amalga oshirishi mumkin bo'lgan ba'zi tezkor qadamlarni joriy qilishi kerak:

-Risklarni boshqarishni avtomatlashtirish: bank operatsiyalariga tez-tez o'zgartirishlar kiritish xarajatlarini va salbiy ta'sirini kamaytiradi.

-Mijozlarga yo'naltirilgan texnologiyalarga sarmoya kiritish: mijozlar biznes riskidan qochish va raqobatbardoshlikni saqlab qolish istagini shaxsiylashtirish va texnologiya darajasini ta'minlaydigan vositalarni sotib olish.

-Aqlli texnologiyalar orqali kiberxavfsizlik vazifalarini hal qilish: Sun'iy intellekt va boshqa aqlli texnologiyalar firibgarlik va shaxsiy ma'lumotlarni o'g'irlash muammolarini tezda aniqlaydi va hal qiladi, shu bilan birga xavfsizlik bo'yicha harakatlarni soddalashtiradi va resurslarni tejaydi.

- Mavjud takliflarni yangilang: mijozlar bilan muloqot qilish va ularning kutganlarini qondirish uchun mijozlarni jalb qilish strategiyalarini qayta ko'rib chiqish kerak.

-Yangisini qura oladigan va boshqara oladigan turli ko'nikmalarga ega xodimlarni tayyorlash va yollash.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda bank risklarini samarali boshqarish, o'z navbatida, bank faoliyatida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xatarlarni oldindan aniqlash, ularning kelib chiqish sabablari, omillari va salbiy oqibatlarini va risklarni darajasini pasaytirish yuzasidan zaruriy choralarni ko'rish banklarni samarali faoliyat yuritishini ta'minlaydi. Yuqoridagi tahlil va fikrlarni umumlashtirib, shuni aytish mumkinki, respublikamiz bank tizimida Bazel III talablarini joriy etishdagi hal qilishni quyidagi yo'nalishda olib borish kerak. Tijorat banklarining joriy likvidligini baholash metodikasida kamchiliklarning mavjudligi; Tijorat banklarida kreditlardan ko'riladigan zararlarni qoplashga mo'ljallangan zaxira ajratmalarining darajasi va kreditlarning risk darajasi o'rtasidagi aloqadorlikning zaifligi; tijorat banklarining aktivlar tarkibidagi daromad keltirilmaydigan va daromadlilik darajasi past bo'lgan aktivlarni, bino va inshootlarni sezilarli darajada yuqori salmoqqa ega ekanligi muammosi; tijorat banklari aktivlarining daromadlilik darajasiga salbiy ta'sir qiluvchi majburiy zaxira talabnomalarining mavjudligi; tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bilan amalga oshiriladigan operatsiyalarini rivojlanmaganligi Markaziy bankning ochiq bozor operatsiyalari orqali ular faoliyatini tartibga solish imkoniyatini cheklab qo'yimoqda; Yevropa mamlakatlarining bank amaliyotida stress testlashda individual kredit oluvchilarning yoki bir turdagi kredit oluvchilarning bankrot bo'lish riskini hisobga olish usullaridan keng foydalaniladi. Ushbu usulni, respublikamiz bank amaliyotida har bir mijozi bo'yicha kredit tarixi ma'lumotlari so'nggi 10-15 yil oralig'ida mavjud emasligi sababli qo'llash juda qiyinligi. Bu esa tijorat banklarini stresstestdan o'tkazish imkoni mavjud emasligini ko'rsatadi. Shuning uchun bankda nazorat, monitoring va risklarni boshqarish tizimini to'liq ishlab chiqish va doimiy ravishda stress testlar o'tkazib turish ham samarali usul hisoblanadi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonuni (2019-yil 05-noyabrdagi O'zRQ-580-son).
2. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining "Tijorat banklarining likvidligini boshqarishga qo'yiladigan talablar to'g'risida"gi Nizomi (2015-yil 13-avgustda 2709-son).
3. I.R.Toymuhamedov "Bank ishi" O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti. 2005-yil.
4. Kenneth A. Froot, Jeremy C. Stein, 1998, Risk management, capital budgeting, and capital structure policy for financial institutions: An integrated approach, Journal of Financial Economics, Volume 47, Issue 1, Pages 55-82, ISSN 0304-405X, [https://doi.org/10.1016/S0304-405X\(97\)00037-8](https://doi.org/10.1016/S0304-405X(97)00037-8).
5. Philipp Harle, Andras Havas, Andreas Kremer, Daniel Rona, Hamid Samandari (2015)The future of bank risk menegment.

6. Abdullaeva Sh. Bank risklari va ularni kreditlash. – T.: Moliya, 2002.
7. Д. Н. Ушаков (2014) Толковый словарь современного русского языка. 100 000 слов и словосочетаний
8. Ожегов С. И. (2019) Толковый словарь русского языка: около 100 000 слов, терминов и фразеологических выражений.
9. www.cbu.uz(O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy sayti)
10. Azimovich, A. U., & Shavkatovich, S. R. (2021). Improving Money Supply Regulation in the Digital Economy. *European Scholar Journal*, 2(10), 44-51.
11. Salayev, R. S. (2021). КРИПТОВАЛЮТАЛАР ТАҲЛИЛИ ВА ПУЛ ТИЗИМИНИНГ КЕЛАЖАГИ. *Scientific progress*, 2(6), 677-681.
12. Shavkatovich, S. R. (2023). PROBLEMS IN THE PRACTICE OF DIGITAL ASSET CIRCULATION IN COMMERCIAL BANKS OF UZBEKISTAN. *World Economics and Finance Bulletin*, 18, 39-47.
13. Салаев, Р. Ш. (2022). Тижорат банкларида рақамли активлар муомаласини ташкил қилиш ва уни ўзига хос хусусиятлари. *MOLIYA VA BANK ISHI*, 8(1).
14. Consuelo Silva Buston, 2016, Active risk management and banking stability, *Journal of Banking & Finance*, Volume 72, Supplement, Pages S203-S215, ISSN 0378-4266, <https://doi.org/10.1016/j.jbankfin.2015.02.004>.